

**SAYLOV JARAYONLARIDA OMMAVIY AXBOROT
VOSITALARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH: QIYOSIY-
HUQUQIY TAHLIL**

Ashurov Alisher G'ulom o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: ushbu maqolada saylov kampaniyasida ommaviy axborot vositalari (OAV) ishtirokini tartibga soluvchi huquqiy normalar tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksidagi OAV faoliyatiga doir qoidalar (xususan, saylovoldi tashviqoti bo'yicha 9-bob moddalari) Germaniya federativ qonunchiligidagi tegishli me'yorlar (Federal saylov qonuni, media erkinligi to'g'risidagi qonunlar, sud qarorlari va amaliy tajriba) bilan qiyosiy o'rganilgan. Tadqiqot natijalarida OAVning saylovdagi huquqiy maqomi, roli, cheklovlar va erkinliklar, hamda saylovda tenglik prinsiplarining amalga oshirilishi har ikki mamlakat misolida tahlil etiladi. Munozara qismida O'zbekiston va Germaniya tajribasining o'xshash va farqli jihatlari yoritilib, O'zbekistonda amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: saylov qonunchiligi, ommaviy axborot vositalari, saylovoldi tashviqoti, media erkinligi, huquqiy tartibga solish, qiyosiy tahlil, tenglik prinsipi.

**ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СРЕДСТВ
МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ИЗБИРАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ:
СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ**

Ашуров Алишер Гулом угли
Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация: в статье анализируются правовые нормы, регулирующие участие средств массовой информации в предвыборной кампании. Изучались положения Избирательного кодекса Республики Узбекистан о деятельности средств массовой информации (в частности,

статьи главы 9 о предвыборной агитации) в сравнении с соответствующими нормами федерального законодательства Германии (Федеральный закон о выборах, законы о свободе СМИ, судебные решения, практический опыт). Результаты исследования анализируют правовой статус, роль, ограничения и свободы средств массовой информации на выборах, а также реализацию принципов равенства на выборах в обеих странах. В рамках дискуссионной секции будут рассмотрены сходства и различия между опытом Узбекистана и Германии, а также разработаны предложения по совершенствованию действующего законодательства Узбекистана.

Ключевые слова: избирательное законодательство, средства массовой информации, избирательная кампания, свобода СМИ, правовое регулирование, сравнительный анализ, принцип равенства.

LEGAL REGULATION OF THE ACTIVITIES OF THE MASS MEDIA IN ELECTION PROCESSES: COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

Ashurov Alisher Gulom ugli
Tashkent State University of Law

Abstract: this article analyzes the legal norms regulating the participation of the mass media (mass media) in the election campaign. The provisions on mass media activities in the Election Code of the Republic of Uzbekistan (in particular, the articles of Chapter 9 on election campaigning) are studied comparatively with the relevant norms of German federal legislation (Federal Election Law, laws on freedom of the media, court decisions and practical experience). The results of the study analyze the legal status of the mass media in elections, their role, restrictions and freedoms, as well as the implementation of the principles of equality in

elections on the example of both countries. The discussion section will highlight the similarities and differences between the experiences of Uzbekistan and Germany, and develop proposals for improving the current legislation in Uzbekistan.

Keywords: *election legislation, mass media, election campaign, media freedom, legal regulation, comparative analysis, principle of equality.*

Kirish. Ommaviy axborot vositalari demokratik saylov jarayonining ajralmas qismidir. OAV saylov kampaniyasi davomida saylovchilarni nomzodlar va siyosiy partiyalar haqidagi axborot bilan ta'minlab, jamoatchilik fikrini shakllantiradi. Shu bois, saylov jarayonining adolatligi va oshkoraligini ta'minlashda OAV faoliyatini huquqiy tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Media erkinligini kafolatlash bir tomondan, hamma nomzodlar uchun teng axborot maydonini yaratish va axborotdan foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish boshqa tomondan, davlat zimmasidagi vazifadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tegishli moddasida ommaviy axborot vositalari erkin ekani va qonunga muvofiq faoliyat yuritishi belgilangan [1; 81-mod.], ya'ni davlat demokratik jamiyatda so'z va axborot erkinligini ta'minlashga mas'ul. Xuddi shunday, Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy Qonunining (Grundgesetz) 5-moddasida matbuot va axborot tarqatish erkinligi kafolatlanib, senzura taqiqlanishi mustahkamlangan [2; 5-mod.]. Ammo OAV erkinligi cheklanmagan mutlaq huquq emas – ayniqsa saylov davrida uni suiiste'mol qilish, biror nomzodga nohaq imtiyoz berish yoki boshqalarga nisbatan noto'g'ri axborot tarqatish xavfi mavjud. Shu sababli ko'plab davlatlar saylov kampaniyasi davrida OAVning rolini va cheklovlarini maxsus qonunlar bilan tartibga soladilar. O'zbekistonda 2019-yilda qabul qilingan yagona Saylov kodeksi saylovoldi tashviqotida OAV ishtirokini

batafsil tartibga soluvchi normalarni o'z ichiga oldi (Kodeks 9-bobi) [1; 44–46-moddalar]. Germaniyada esa ommaviy axborot vositalari faoliyati asosan Konstitutsiya prinsiplariga, “*Medienstaatsvertrag*” kabi media to'g'risidagi normativ hujjatlarga va Federal Konstitutsiyaviy sudning qarorlariga asoslanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda so'nggi yillarda saylov qonunchiligini demokratik talablar asosida takomillashtirishga intilish kuchaymoqda. Saylov jarayonida OAVga erkinlik berish bilan birga, barcha siyosiy subyektlar uchun teng imkoniyatlar kafolatlanishi lozim. Xalqaro tajribani o'rganish, xususan Germaniya kabi demokratik davlatlar amaliyotini tahlil qilish, O'zbekiston saylov qonunchiligini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada ilmiy asos sifatida xalqaro huquqiy hujjatlar (masalan, YXHT 1990-yilgi Kopengagen hujjati) va milliy qonunchilik o'rtasidagi talablar solishtirilib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil metodologiyasidan foydalanildi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi hamda Germaniya saylov va media qonunchiligiga doir normativ hujjatlar matni tahlil qilindi. O'zbekistondagi huquqiy bazaning asosiy elementlari – saylovoldi tashviqoti tartibi, OAVga berilgan huquq va majburiyatlar, cheklov choralari – aniqlanib, ular Germaniyadagi tegishli normalar bilan qiyosiy ravishda o'rganildi. Qonunchilik normalarini solishtirishda funksional yondashuv qo'llanilib, har ikki tizimda OAVning saylov jarayonidagi roli va huquqiy maqomi qanchalik o'xshash funksiyani bajarishi yoki farqli ekaniga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, tadqiqotda huquqiy hujjatlar tahlilini boyitish maqsadida xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ekspert xulosalari o'rganildi. Xususan, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) Demokratik institutlar va

inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIIHB)ning O'zbekiston va Germaniyadagi saylovlarga doir kuzatuv hisobotlaridan foydalanildi. Bu hisobotlar OAV erkinligi va teng imkoniyatlarini amaliy nuqtayi nazardan baholab, milliy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar beradi [4; B. 29]. Shu bilan birga, Germaniyada konstitutsiyaviy nazorat organlari (Bundesverfassungsgericht) qarorlari tahlil qilindi, zero, aynan ana shu sud praktikasida OAVning saylov kampaniyasidagi vazifalari va cheklovlariga oid muhim huquqiy mezonlar shakllangan. Tadqiqot davomida olingan natijalar O'zbekiston va Germaniya qonunchiligi bandma-band taqqoslash orqali umumlashtirildi. Qonun hujjatlaridagi o'xshashlik va farqlar aniqlanib, ularning sabab va oqibatlari huquqiy mantiq nuqtayi nazaridan izohlandi. Olingan ilmiy xulosalar asosida O'zbekiston qonunchiligini xalqaro demokratik standartlar darajasida rivojlantirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Natijalar. O'zbekiston Respublikasining saylov qonunchiligida ommaviy axborot vositalarining saylov jarayonidagi ishtiroki maxsus normalar bilan tartibga solingan. Eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi OAV erkinligini kafolatlab, ularni faqat qonunda belgilangan tartibda cheklash mumkinligini nazarda tutadi [1; 81-mod.]. Shu konstitutsiyaviy prinsip asosida Saylov kodeksi va "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonun normalari OAV faoliyatiga doir umumiy huquqiy maydonni belgilaydi. Xususan, Saylov kodeksi 35-moddasiga muvofiq, OAV vakillari saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarni yoritish hamda saylov kuni ovoz berish xonalari va ovozlarni sanash jarayonida bevosita hozir bo'lish huquqiga ega[3; 35-mod.]. Ya'ni, qonun OAVni saylov jarayonining rasmiy kuzatuvchisi sifatida tan olgan va ularga keng vakolat bergan. OAV vakillarini akkreditatsiya qilish Markaziy saylov komissiyasi va

hududiy komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi, ular belgilangan namunadagi guvohnoma bilan ta'minlanadi. Bu norma saylovlarning oshkoraligini ta'minlashga xizmat qiladi, chunki jurnalistlar nomzodlarni ro'yxatga olishdan tortib ovozlarni sanashgacha bo'lgan bosqichlarni erkin yoritishi mumkin.

Saylovoldi tashviqotini olib borishda OAVning o'rni va majburiyatlari O'zbekiston Saylov kodeksining 9-bobida batafsil bayon etilgan. 44-modda saylovoldi tashviqotiga ruxsat beriladigan davrni belgilaydi: nomzodlar va partiyalar ro'yxati rasmiy ro'yxatga olingan kundan boshlab tashviqotga start beriladi va ovoz berish kuni hamda uning oldidagi kun (tinchlik kuni) tashviqot olib borish taqiqlanadi [3; 44-mod.]. Ushbu qoida OAVga ham tegishli bo'lib, saylov kuniga bir kun qolganida va saylov kunida hech qanday tashviqot xabar yoki materiallarini tarqatmaslik talab qilinadi. Demak, qonun bo'yicha "sukut kuni" joriy etilib, saylovchilar ovoz berishdan avvalgi so'nggi kunda har qanday targ'ibot ta'siridan holi bo'lishlari ko'zda tutilgan. Bu prinsipsiz OAV saylov kuni biror nomzod foydasiga axborot berib, boshqa nomzodlarga nisbatan nomutanosiblik keltirib chiqarmasligi ta'minlanadi.

Saylovoldi tashviqotini OAV orqali olib borish tartibi 46-moddada mustahkamlangan. Unga ko'ra, davlat ommaviy axborot vositalarida nomzodlar va partiyalarga teng hajmda va bir xil sharoitlarda efir vaqti hamda nashr maydoni ajratilishi lozim [3; 46-mod.]. Bunda davlat OAVi nomzodlarga bepul asosda belgilangan hajmdagi efir vaqtini taqdim etadi. Ya'ni, barcha ro'yxatga olingan siyosiy partiyalar (yoki nomzodlar) davlat teleradiokanallarida va matbuot nashrlarida bir xil vaqt va joyni reklama uchun hech qanday to'lovsiz olish huquqiga ega bo'ladilar. Shu tariqa, qonun saylovda ishtirok etayotgan tomonlar orasida axborot sohasida tenglik prinsipini ta'minlashga intiladi. Davlat OAV bilan

bir qatorda, tijorat (nodavlat) ommaviy axborot vositalarida ham efir vaqti yoki gazeta-jurnal maydoni berilishi mumkin, ammo bu pullik asosda bo'lsa ham, barcha uchun teng shartlarda bo'lishi kerak. Bu norma, masalan, biror telekanal saylovoldi reklamasi uchun muayyan tarif belgilagan bo'lsa, barcha partiyalarga bir xil tarifni taklif etishi lozimligini anglatadi – ya'ni muxolifat vakilidan yuqoriroq narx talab qilish yoki kam vaqt taklif qilish qonunga xilof bo'ladi.

Bundan tashqari, Saylov kodeksi siyosiy partiyalarga davlat OAVidan bepul foydalanish tartibi va hajmini belgilash vakolatini tegishli saylov komissiyasiga yuklaydi [3; 46-mod.]. Markaziy saylov komissiyasi (yoki tegishli okrug saylov komissiyalari) partiyalarning taklif va fikrlarini inobatga olgan holda, radio va televideniya bepul chiqishlar jadvalini tuzadi. Amaliyotda, masalan, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi orqali partiyalarning saylovoldi dasturlarini taqdim etish uchun bir xil davomdagi roliklarni efirga uzatish grafigi tuziladi va har bir partiyaga teng vaqt oralig'ida ko'rsatiladi. Shu bilan birga, davlat matbuot nashrlari (masalan, "Xalq so'zi" va "Narodnoe slovo" gazetalarida) partiyalar uchun bir xil hajmdagi maqola joylashtirish imkoniyati beriladi. Bunday bepul efir vaqti va nashr maydonidan tashqari, agar partiyalar qo'shimcha ravishda pullik reklama qilishni xohlasa, bu ham qonunda man etilmagan – faqat yuqorida ta'kidlanganidek, pullik asosdagi axborot ko'rsatuvlari ham barcha subyektlar uchun teng shart-sharoit asosida bo'lishi talab etiladi.

Saylovoldi tashviqotining mazmuniy cheklovlari ham qonunda belgilangan. Masalan, Saylov kodeksi 44-moddasida tashviqot davrida saylovchilarni tovlamachilik qilish – ularga pul yoki qimmatbaho sovg'alar tarqatish, bepul (yoki imtiyozli) xizmatlar ko'rsatish kabi usullar taqiqlanishi qayd etilgan [3; 44-mod.]. Bu bevosita OAVga tegishli bo'lmasa-da, axborot tarqatish

shaklida ham saylovchilarni haq evaziga oʻziga ogʻdirish man etiladi. Shuningdek, umumiy tartibda OAV orqali tarqatilishi mumkin boʻlmagan noqonuniy materiallar (milliy, irqiy, diniy adovat qoʻzgʻatuvchi chaqiriqlar, zoʻravonlikka undovchi har qanday targʻibot) saylovoldi tashviqoti doirasida ham man etiladi – bu normalar bevosita Saylov kodeksida koʻrsatilmagan boʻlsa-da, Oʻzbekiston jinoyat va maʼmuriy qonunchiligida belgilangan. Saylov kodeksi 8-modda va boshqa qator normalarda saylov jarayonida soʻz erkinligi va axborotning erkin tarqalishi prinsipi eʼtirof etilgan boʻlsa-da, u Konstitutsiya va boshqa qonunlar bilan muvofiqlikda talqin etiladi [3; 8-mod.].

Oʻzbekiston saylov qonunchiligi OAVga nafaqat huquqlar balki masʼuliyat ham yuklaydi. Agar ommaviy axborot vositalari saylov toʻgʻrisidagi qonun talablarini buzsa – masalan, belgilangan tartibga xilof ravishda tashviqot materiallarini berish, tenglik prinsipini buzish, sukut kunida targʻibot qilish va hokazo – ular belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin. Saylov kodeksining 103-moddasi saylov qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik borligini eslatib oʻtib, bunday holatlarda Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 51²–51¹¹-moddalariga murojaat qilish lozimligini koʻrsatadi [3; 103-mod.]. Maʼmuriy huquqbuzarlik toʻgʻrisidagi kodeksda saylov jarayonida OAVga oid qoidalarni buzish (masalan, noqonuniy tashviqot, soxta axborot tarqatish, belgilangan joylardan tashqarida tashviqot plakatlari osish va h.k.) uchun jarima kabi jazo choralari belgilangan. Shuningdek, agar OAV vakili saylov natijalarini soxtalashtirishga yoki ovoz berishga aralashgan boʻlsa, ehtimol u jinoiy javobgarlikka ham tortilishi mumkin – Jinoyat kodeksining 146-moddasi saylov huquqlarini buzish bilan bogʻliq jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutadi [5; 146-mod.]. Shunga qaramasdan, amalda

O‘zbekistonda OAV tomonidan saylov qonuni buzilgani uchun sud tartibida jazo qo‘llash holatlari deyarli uchramagan; aksincha, OAV ko‘proq hukumat siyosatini qo‘llab-quvvatlashga moyil bo‘lgani uchun, saylovlarda nomzodlar o‘rtasida noxolis yoritish kabi muammolar xalqaro kuzatuvchilar tomonidan tilga olinadi. Masalan, YXHT DIIHBning 2024-yil Oliy Majlis sayloviga doir yakuniy hisobotida “OAVdagi cheklovlar saylovchilarning turli nuqtayi nazarlar haqidagi ma’lumotga ega bo‘lish imkoniyatini sezilarli ravishda chekladi” degan xulosa bildirilgan [4; B. 2]. Bu shuni ko‘rsatadiki, qonunchilikda teng huquq va erkinliklar e’lon qilingan bo‘lsa-da, ularni amalda ta’minlash uchun OAV mustaqilligi va plyuralizmini kuchaytirish zaruriyati mavjud.

Germaniyada ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy tamoyillar Konstitutsiya (Grundgesetz) darajasida belgilangan. Asosiy Qonunning 5-moddasi so‘z erkinligi, matbuot erkinligi va axborot tarqatish erkinligini kafolatlar ekan, davlat nazoratini (senzurani) taqiqlaydi. Shuningdek, 21-modda siyosiy partiyalar xalqning siyosiy irodasini shakllantirishda ishtirok etishini konstitutsiyaviy vazifa sifatida qayd etadi [2; 21-mod.]. Ushbu ikki norma birgalikda shuni anglatadiki, siyosiy partiyalar o‘z g‘oyalarini erkin axborot maydonida targ‘ib qilish huquqiga ega va davlat ularga imkon qadar teng sharoit yaratib berishi lozim, lekin ayni vaqtda davlat OAV mazmuniga noo‘rin aralashmasligi kerak.

Germaniya federativ tuzilishga ega bo‘lib, OAV bo‘yicha qonunchilik vakolati asosan yerlar (ya’ni, mahalliy shtatlar)ga berilgan. Shu bois mamlakatda yagona “Matbuot to‘g‘risida” yoki “OAV to‘g‘risida” umumfederal qonun yo‘q; uning o‘rniga har bir yerning matbuot haqidagi qonunlari va butun Germaniya bo‘ylab amal qiluvchi *Medienstaatsvertrag* (2020-yilda qabul qilingan Media

to‘g‘risidagi davlatlararo shartnoma) mavjud. *Medienstaatsvertrag* barcha jamoat (davlat) va xususiy tele-radio tarmoqlari faoliyatining umumiy qoidalarini belgilaydi. Xususan, jamoat teleradiokompaniyalari (masalan, ARD, ZDF) axborot dasturlarida “obyektivlik va xolislik tamoyillariga rioya etishi, mavzular va fikrlar rang-barangligini iloji boricha muvozanatli aks ettirishi” shart qilib qo‘yilgan [6; B. 192]. Ushbu talab, aslida, jamoat eshittirishlarining demokratik jamiyatdagi o‘rni – erkin va jamoat manfaatiga xizmat qiluvchi fikrlar minbarini ta’minlash – vazifasidan kelib chiqadi. Konstitutsiyaviy sud o‘zining bir qancha tarixiy qarorlarida radio va televideniyei “ommaviy kommunikatsiyaning alohida ahamiyatga ega sohasi” deb atab, u orqali barcha ijtimoiy guruhlar fikrlari eshutilishiga sharoit yaratish zarurligini ta’kidlagan. Masalan, 1961-yilgi bir qarorida sud shunday degan edi: “Radio eshittirishlar – bu shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki demokratik jarayonda fuqarolarning erkin fikr shakllantirish jarayonining tarkibiy qismi; shu sababli, konstitutsiyaviy tartibda himoya qilinadi va har qanday bir tomonlama nazoratdan xoli bo‘lishi lozim” [6; B. 200]. Bu prinsip saylov davrida yanada dolzarb bo‘ladi, chunki saylov – bu xalq irodasini erkin ifodalash jarayoni, OAV esa bu jarayonni bevosita ta’sirlovchi omildir.

Germaniyada siyosiy partiyalarga saylovoldi tashviqoti uchun ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa radio va televideniyeida, keng imkoniyatlar beriladi. Muhimi, bu imkoniyat qonuniy majburiyat tarzida ta’minlanadi: har bir efirga ruxsat olgan tele-radio kompaniyasi saylov oldidan partiyalarning reklamaviy roliklarini bepul efirga uzatishi shart. *Medienstaatsvertrag*ning 68-moddasi va unga muvofiq yerlarning media qonunlariga asosan, Bundestag (federal parlament) saylovi va Yevropa parlamenti saylovi oldidan barcha umumfederativ tele-radio

kanallari partiyalarga “adolatli ulushda” efir vaqtini berishi lozim [7; B. 1]. Bu ulush qanday taqsimlanishi masalasi qonunda aniq foizlarda belgilanmagan bo‘lsa-da, Konstitutsiyaviy sud qarorlari bilan ishlab chiqilgan mezonlarga ko‘ra hal etiladi. Sud “partiyalarning imkoniyatlarda tengligi prinsipi”dan kelib chiqib, *abgestufte Chancengleichheit* deb atalgan tamoyilni joriy qilgan. Ushbu “darajali tenglik” tamoyiliga binoan, har qanday saylovda qatnashishga ruxsat etilgan partiya efirda ishtirok etish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas, biroq partiyalarning mazkur efirdagi ko‘rinishlari ularning jamiyatdagi o‘rniga muvofiq ravishda differentsiallashtirishi mumkin [6; B. 203]. Boshqacha aytganda, juda kichik yoki yangi partiyalar ham televideniye va radio orqali o‘z dasturini targ‘ib qilish uchun vaqt oladi, lekin yirik partiyalar (o‘tgan saylovlarda ko‘proq ovoz olgan, parlamentda fraksiyaga ega bo‘lgan va h.k.) kattaroq ulushda vaqt olishga haqli. Sud bunday differensial yondashuvni oqlovchi bir necha omilni sanab o‘tgan: partiyaning avvalgi saylovdagi natijalari, siyosiy maydondagi faoliyati davomiyligi, a‘zolar soni, tashkilot tarmog‘i, parlamentlarda vakilligi, hokimiyatda ishtiroki kabi mezonlar inobatga olinishi mumkin [6; B. 221]. Misol tariqasida, agar mamlakatda yirik an‘anaviy partiyalar qatorida yangi tashkil topgan kichik partiya ham saylovda qatnashayotgan bo‘lsa, televideniye uning roligiga ham vaqt ajratishi shart, ammo efir vaqti taqsimotida yirik partiyalar 10 daqiqadan, kichik partiya esa 5 daqiqa olishini sud adolatli deb topishi mumkin – chunki bu farq partiyalarning jamiyatdagi ahamiyati va saylovchilarga ta’siridan kelib chiqadi.

Demak, Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qonuniy tartibga solish bilan bir qatorda OAVning professional va mustaqil bo‘lishi, o‘z ichki me’yorlariga ega ekani saylov jarayonining haqqoniy yoritilishi uchun katta ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari erkin faoliyat yuritish ekan, ayni

paytda partiyalar orasida muayyan muvozanat va hammani eshitish imkoniyati (oppozitsiya partiyalarini ham qatnashishi) tamoyili jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Shu bois, Germaniyada davlat hokimiyati saylov davrida OAV faoliyatini cheklashga emas, balki asosan facilitate (ko‘maklashish) qilishga, ya’ni barcha siyosiy subyektlar media maydonda ishtirok etishiga sharoit yaratib berishga urg‘u beradi.

Tahlil. Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, O‘zbekiston va Germaniya saylov jarayonlarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga solish borasida bir qator o‘xshash jihatlar mavjud bo‘lsa-da, tizim va yondashuv nuqtayi nazaridan jiddiy farqlar ham mavjud. Avvalo, o‘xshashliklarni ta’kidlash lozim. Har ikki mamlakat qonunchiligida saylov davrida OAVning erkin axborot tarqatish huquqi tan olinadi va saylov kampaniyasining ochiqqligi prinsipi e’lon qilingan. O‘zbekiston Saylov kodeksi va Germaniya Asosiy Qonuni ham saylovlarda axborot olish va tarqatish erkinligini demokratik saylovlarning ajralmas sharti sifatida e’tirof etadi. Masalan, O‘zbekiston qonunchiligida jurnalistlar saylov uchastkalarida hozir bo‘lib, kuzatuv o‘tkazishi qonunan mustahkamlangan bo‘lsa [3; 35-mod.], Germaniyada ham akkreditatsiyadan o‘tgan OAV xodimlari saylov kunini erkin yoritadi (hatto ayrim shtatlarning saylov kodekslarida jurnalistlarning uchastkalardagi faoliyatini osonlashtirish ko‘zda tutilgan). Shuningdek, ikki davlat ham saylovoldi tashviqotida siyosiy subyektlar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashga intiladi. Bu borada O‘zbekiston davlat OAV orqali *bepul va teng efir vaqti* berishni qonun darajasida joriy qilgan bo‘lsa [3; 46-mod.], Germaniya ham barcha tele-radio eshittirish tashkilotlarini *bepul siyosiy reklama vaqtini* ajratishga majbur qiladi [7]. Ya’ni, nomzodlar va partiyalarni axborot maydonida teng ko‘rinish olishini huquqiy jihatdan kafolatlash prinsipi har ikki yerda mavjud.

Yana bir o'xshash jihat – saylovoldi tashviqotining noqonuniy shakllarini cheklashdir. O'zbekiston qonunchiligi saylovchilarni sotib olish (ovoz evaziga pul yoki sovg'a berish)ni taqiqlaganidek [3; 44-mod.], Germaniyada ham bunday harakatlar noqonuniy hisoblanib, hatto Jinoyat kodeksi bilan taqiqlanadi (masalan, saylovchini tovlamachilik yo'li bilan ovoz berishga undash – jinoyat). Shuningdek, har ikki mamlakatda ham ekstremistik chaqiriqlar, zo'ravonlikka da'vat va yolg'on xabarlar tarqatish umumiy qonunlar orqali man etilgan – bu normalar, albatta, saylov davridagi OAVga ham tegishlidir.

Shunga qaramasdan, farqlar tahlili bizga OAV faoliyatini tartibga solishdagi yondashuv va amaliyotdagi tafovutlarni ko'rsatadi. Birinchi navbatda, siyosiy va media tizimlarining farqli ekanligi huquqiy tartibga solishda aks etgan. O'zbekistonda OAVning aksariyati davlatga qarashli yoki davlat ko'magida faoliyat yuritadi, mustaqil va muxolif axborot manbalari nisbatan cheklangan. Shu sababli, qonunchilikda formallashgan tenglik prinsipiga qaramay, axborot maydoni monopolizatsiyasi kuzatilishi mumkin – ya'ni, amalda barcha partiyalar teng e'fir vaqtini olishsa-da, davlat OAVning yangiliklar, tahliliy dasturlarida odatda hukmron partiya va amaldagi hukumat uchun ko'proq ijobiy yoritilish beriladi. YXHT kuzatuvchilari bir necha saylovlarda O'zbekiston televideniyesi va bosma matbuoti xabarlarida tanqidiy yoki muxolif fikrlar deyarli eshitilmasligini qayd etganlar – bu axborot muhitining bir tomonlama ekani tashqi bahodir [4; B. 2]. Germaniyada esa media bozori ancha plyuralistik: ko'plab xususiy telekanallar, minglab mustaqil gazeta-jurnallar faoliyat ko'rsatadi, jamoat teleradiokompaniyalari esa mustaqil tahririyat siyosatiga ega. Shu sababdan, nemis qonunchiligi OAVga nisbatan ko'proq ishonch bildirish va o'zini o'zi tartibga solishga tayanuvchi yumshoq yondashuvni ko'ramiz. Masalan, Germaniyada

bosma matbuot yoki internet nashrlarida barcha partiyalarga bir xil joy berish majburiy emas – tahririyatlarning o‘z xohishiga ko‘ra kimni yoritish, kimni tanqid qilish belgilanishi mumkin, bu senzura hisoblanmaydi. O‘zbekistonda esa de-fakto aksincha, ko‘plab OAV hukumat siyosati bilan uyg‘un kontent tarqatishga harakat qiladi, muxolifatga mustaqil platforma berish amaliyoti sust. Bu farq, albatta, qonunchilik matnida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etmasligi mumkin, lekin uning amal qilishida seziladi.

Huquqiy mexanizmlardagi farqlardan biri – saylovoldi “sukut kuni” institutidir. O‘zbekiston saylov kodeksi bo‘yicha tashviqot ovoz berish kunidan bir kun oldin to‘xtashi shart [3; 44-mod.], Germaniyada esa bunday qat’iy taqiq yo‘q. Bu, bir tomondan, saylovchilarning so‘nggi qarorini mustaqil shakllantirishga xizmat qilsa (ommaviy targ‘ibot shovqinidan xoli kun berish orqali), boshqa tomondan, axborot oqimini cheklaydi. Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agar OAV erkin va professional bo‘lsa, “tashviqot kuni”da ham qandaydir favqulodda nomutanosiblikka yo‘l qo‘yilmaydi – axborot iste’molchilari turli manbalardan xabar olishda davom etadi, lekin ular bildirayotgan fikrlar yangilik xabarlarida muvozanat saqlanadi.

Axborot makonini tartibga solishning zamonaviy masalasi – **ijtimoiy tarmoqlar va onlayn media** – borasida ham ikki mamlakat o‘rtasida farqli yondashuvlar kuzatiladi. O‘zbekistonda internetdagi faoliyatga doir ayrim cheklovlar mavjud: masalan, xorijdan moliyalashtiriladigan veb-saytlar faoliyatiga ruxsat berilmasligi yoki ba’zi mustaqil saytlarning bloklanishi. YXHT DIIHB O‘zbekistonga media qonunchiligini, xususan internet resurslariga qo‘yilgan cheklovlarni xalqaro standartlarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqishni tavsiya etgan [4; B. 30]. Germaniyada esa internetda siyosiy reklama erkin, faqat

qonuniylik va moliyaviy shaffoflik tomonlari nazorat qilinadi. Soxta xabar va nafratomuz kontentga qarshi qoidalar O'zbekistonda ham, Germaniyada ham mavjud, ammo ularni qo'llash darajasi turlicha. O'zbekiston amaliyotida saylov arafasida ayrim ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining faoliyatiga cheklov qo'yish, ularga nisbatan ogohlantirish berish kuzatilgan bo'lsa, Germaniyada ko'proq platformalarning o'zida filtr va ogohlantirishlar o'rnatishiga urg'u berilgan. Bu borada ham Germaniya o'zini o'zi tartibga solishga tayanmoqda, O'zbekiston esa markazlashgan nazoratga.

Yuqoridagi tahlil asosida, O'zbekistonda saylov davrida OAV faoliyatini huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish uchun Germaniya tajribasidan o'rganish mumkin bo'lgan qator jihatlar mavjud. Eng avvalo, OAVning instituttsional mustaqilligini kuchaytirish va ular orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish zarur. Qonun oldida hamma partiyalar teng, ammo amalda media maydonida tenglikka erishish uchun mustaqil va turli qarashlarni ifoda etuvchi nashrlar ko'payishi lozim. Germaniyada davlat bevosita taqiqlar bilan emas, balki umumiy qoidalar bilan cheklanishi, qolganini jurnalistikaning professional standartlariga qo'yishi natija bergan; O'zbekiston ham bosqichma-bosqich shunga o'tishi maqsadga muvofiq. Masalan, saylov davrida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi qoshida mustaqil jamoatchilik media kengashi tuzish va efir vaqtini taqsimlash hamda yoritilish sifatini monitoring qilish vakolatini berish mumkin. Bu kengash tarkibida barcha partiya va jamoatchilik vakillari bo'lsa, davlat organlarining to'g'ridan-to'g'ri aralashuvisiz OAVda tenglikka rioya etilishini kuzatar edi.

Shuningdek, Germaniya tajribasidagi kabi teledebatlar va ochiq munozaralar madaniyatini rivojlantirish lozim. 2021-yilgi prezidentlik saylovida

O‘zbekiston davlat telekanali tarixda ilk bor barcha nomzodlarni bir stolda jamlab debat o‘tkazdi – bu olqishga sazovor hol. Bu amaliyotni qonunchilik yoki MSK ko‘rsatmalari darajasida mustahkamlab, har bir saylov kampaniyasida asosiy OAVlar kamida bir marta nomzodlar o‘rtasida debat tashkil etishi qoidasini joriy qilish foydali bo‘lur edi. Germaniyada an‘anaviy tarzda yetakchi nomzodlar “dueli” yoki barcha partiyalar “davrasi” (elefantenrunde) televizorda namoyish etilib, bu saylovchilarga bevosita solishtirish imkonini beradi. Bunday debatlar vaqtini va formatini adolatli belgilash ham muhim – Germaniyada ko‘rilganidek, kichik partiyalarni chetlatib qo‘yish ham noto‘g‘ri; shu bois, O‘zbekistonda ham barcha ro‘yxatga olingan subyektlar uchun efir munozarasida ishtirok etish imkoniyatini yaratish lozim.

Huquqiy javobgarlik mexanizmlarini muvozanatlash ham muhim masala. Bir tomondan, saylov qonunchiligi normalarini buzgan OAV qonun oldida javob berishi tabiiy – masalan, soxta axborot tarqatish yoki belgilangan vaqtdan tashqari tashviqot uchun jarima qo‘llash. Biroq, bu javobgarlik choralari so‘z erkinligini bo‘g‘ib qo‘yadigan darajada qat’iy talqin etilmasligi kerak. Germaniyada medianing xatosi asosan jamoatchilik tanqidi va obro‘ yo‘qotishi bilan “jazolanadi”, sudga tortish kamdan-kam hollarda bo‘ladi (faqat juda qo‘pol qonun buzilish bo‘lsa). O‘zbekistonda ham shu yo‘nalishda harakat qilish – ya’ni, ma’muriy jazolardan ko‘ra jamoatchilik nazorati va professional etika rolini oshirish – OAVni mas’uliyatli va ayni vaqtda erkinroq qiladi. Misol uchun, saylov davrida OAV monitoringi natijalarini (kim qancha vaqt yoritildi, ijobiy-salbiy neytral baholar qanday) ommaga e’lon qilib borish, shu orqali matbuotning o‘z obro‘sig a ta’sir o‘tkazish mexanizmini ishga solish mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, saylov jarayonlarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga solish masalasi demokratik tamoyillar va adolatli raqobatni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston va Germaniya misolida ko'rilganidek, huquqiy tartibga solishning samaradorligi, avvalo, siyosiy tizim va media muhiti umumiy holatiga bog'liq. Germaniyada erkin va mustaqil media an'analari shakllangan bo'lsa, O'zbekistonda shu yo'nalishda islohotlar davom etmoqda. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston qonunchiligida so'nggi yillarda kiritilgan normalar – saylovoldi tashviqotida barcha nomzodlarga teng efir vaqti ajratilishi, media vakillarining kuzatuvchilik huquqi e'tirof etilishi kabi yangiliklar – ijobiy qadamdir. Endilikda bu normalarning amalda to'liq ishlashini ta'minlash va ularni xalqaro demokratik standartlarga yanada yaqinlashtirish zarur.

Maqola doirasida olingan xulosalarga tayangan holda, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. OAV erkinligi va mustaqilligini ta'minlash: Konstitutsiya va tegishli qonunlar darajasida kafolatlangan so'z erkinligini ro'yobga chiqarish uchun amaliy chora-tadbirlar kuchaytirilishi lozim. Jumladan, saylov davrida davlat OAVining tahririy siyosatiga siyosiy aralashuvga yo'l qo'ymaslik, ularning faoliyatiga mustaqil jamoatchilik kengashlarini jalb etish amaliyoti joriy etilsin. Bu Germaniyadagi jamoat teleradiokompaniyalari kengashlariga o'xshash tuzilmani yaratib, efirda siyosiy balansni saqlashga xizmat qiladi.

2. Teng imkoniyatlar prinsipini nazorat qilishning shaffof mexanizmlarini yaratish: Markaziy saylov komissiyasi huzurida media monitoring bo'limini tashkil etish va saylov kampaniyasi davomida barcha

OAVda yoritilishni kuzatib borish taklif etiladi. Uning hisobotlari haftalik ravishda e'lon qilinib, qaysi nashr yoki telekanalda qaysi nomzod qancha va qay tarzda yoritilgani ko'rsatilsa, bu jamiyat uchun ochiq axborot bo'ladi va OAVlar o'z obro'sini saqlash uchun xolislikka rioya etishga harakat qiladi.

3. Debat va muhokamalarni institutsionalizatsiya qilish: Saylov kodeksiga yoki Markaziy saylov komissiyasi nizomlariga barcha asosiy OAVlarda (milliy telekanallar va yirik radiokanallarda) saylovoldi davrida nomzodlar ishtirokida kamida bitta ochiq munozara (debat) o'tkazish majburiyati kiritilishi maqsadga muvofiq. Bu munozaralarning teng va adolatli formatini MSK belgilaydi (masalan, barcha partiyalarga bir xil savollar bilan bir xil vaqt berilishi). Bunday norma saylovchilarning ongli tanlov qilishiga ko'maklashadi.

4. Internet va ijtimoiy media bo'yicha aniq qoida va tavsiyalar ishlab chiqish: Raqamli axborot makonida saylov kampaniyasini tartibga solishga doir alohida qo'llanma yaratilishi lozim. Unda partiyalarning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida reklama postlarini belgilash, internetda soxta axborot tarqatmaslik bo'yicha majburiyatlar kabi masalalar yoritiladi. Bu qo'llanma Germaniyada shakllanib kelayotgan raqamli kampaniya qoidalarini inobatga olgan holda tayyorlanishi va OAV hamda partiyalarga tarqatilishi kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, saylov jarayonida OAV faoliyatini huquqiy tartibga solishning maqsadi – ochiq, adolatli va erkin saylov muhitini yaratishdir. Buning uchun huquqiy me'yorlar bir vaqtning o'zida media erkinligini himoya qilishi va saylovchilarga teng axborot yetkazilishini kafolatlashi zarur. O'zbekiston va Germaniya tajribasini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qat'iy

huquqiy talablar va yumshoq o'zini o'zi tartibga solish elementlarining oqilona uyg'unligi eng samarali yondashuv hisoblanadi. Germaniyada yaratilgan tizim ko'p yillik taraqqiyot mahsuli bo'lsa-da, uning asosiy tamoyillari – OAVning mustaqilligi, siyosiy reklamaning barcha uchun ochiqqligi, partiyalarning media orqali teng ishtirokini ta'minlash – umuminsoniy demokratik qadriyat sifatida boshqa davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland (GG). Bundesministerium der Justiz, 1949. <https://www.gesetze-im-internet.de/gg/>.
3. O'zbekiston Saylov kodeksi. <https://lex.uz/en/docs/-4386848>.
4. OSCE/ODIHR. Uzbekistan Parliamentary Elections, 27 October 2024: Final Report. Warsaw: OSCE Office for Democratic Institutions and Human Rights, 2025.
5. Jinoyat Kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>.
6. McQuail, Denis. McQuail's Mass Communication Theory. 6th ed., Sage Publications, 2010.
7. Gunther, Richard, José Ramón Montero, and Hans-Jürgen Puhle. Democracy, Intermediation, and Voting on Four Continents: Political Information and Interest Representation in Western Democracies. Oxford University Press, 2007.